

XX ASR QASHQADARYO IRRIGATSIYA INSHOOTLARI QURILISHI TARIXI TARIXSHUNOSLIGI

Annotatsiya. XX asrda Sovet davlati tomonidan O'zbekistonda, xususan Qashqadaryo hududida amalga oshirilgan yirik irrigatsiya loyihalari va agrar siyosatning mohiyatini o'rganish bugungacha dolzarbligini yo'qotmagan. Sovet agrar siyosatining mazmuni, uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va ayniqsa paxta monokulturasiga erishishga qaratilgan irrigatsiya ishlari masalasi tarixchilar e'tiborini hamisha tortib kelgan. Shu bois, bu yo'nalishda bir qator monografiyalar, maqolalar va tadqiqotlar yaratilgan. Mazkur maqolada XX asrda sovet agrar siyosatining asosiy yo'nalishlari, xususan Qashqadaryo irrigatsiya qurilishiga oid adabiyotlar tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo vohasi, irrigatsiya tarixi, sug'orish tizimlari, melioratsiya, Qarshi cho'lini o'zlashtirish, suv xo'jaligi, sovet agrar siyosati, paxta monokulturası, gidrotexnika inshootlari, irrigatsiya tarixshunosligi, ekologik oqibatlar, yangi erlarni o'zlashtirish, tarixiy manbalar, suv resurslari boshqaruvi.

HISTORIOGRAPHY OF THE HISTORY OF THE CONSTRUCTION OF IRRIGATION STRUCTURES OF THE 20TH CENTURY

Annotation. The study of large-scale irrigation projects and the agrarian policy implemented by the Soviet state in Uzbekistan during the 20th century—particularly in the Qashqadaryo region—remains highly relevant today. The essence of Soviet agrarian policy, its socio-economic consequences, and especially the irrigation measures aimed at strengthening cotton monoculture have consistently attracted the attention of historians. Consequently, numerous monographs, articles, and research works have been produced in this field. This article provides a historiographical analysis of the main directions of Soviet agrarian policy in the 20th century, with a special focus on the literature concerning irrigation construction in the Qashqadaryo region.

Keywords: Qashqadaryo oasis, irrigation history, irrigation systems, land reclamation, development of the Qarshi steppe, water management, Soviet agrarian policy, cotton monoculture, hydraulic engineering structures, irrigation historiography, ecological consequences, land development, historical sources, water resource management.

ИСТОРИОГРАФИЯ ИСТОРИИ СТРОИТЕЛЬСТВА ИРРИГАЦИОННЫХ СООРУЖЕНИЙ 20 ВЕКА

Аннотация. Изучение крупномасштабных ирригационных проектов и аграрной политики, осуществленных Советским государством в Узбекистане в XX веке, особенно на территории Кашкадарьинского региона, до настоящего времени не утратило своей актуальности. Содержание советской аграрной политики, её социально-экономические последствия и главным образом ирригационные мероприятия, направленные на укрепление хлопковой монокультуры, неизменно привлекали внимание историков. В результате в данной области создан значительный корпус монографий, статей и исследовательских работ. В настоящей статье проводится историографический анализ основных направлений советской аграрной политики XX века, с особым акцентом на литературу, посвящённую ирригационному строительству в Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: *Кашкадарьинский оазис, история ирригации, оросительные системы, мелиорация, освоение Каршинской степи, водное хозяйство, советская аграрная политика, хлопковая монокультура, гидротехнические сооружения, историография ирригации, экологические последствия, освоение новых земель, исторические источники, управление водными ресурсами.*

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, xalqimizning o'z vatani tarixini o'rganishga bo'lgan intilishi ortdi. Xolisona tadqiqotlar ilmiy nashrlardan chiqib boshladi. Shu bilan birga har qaysi sohada o'z kasbining fidoiylari tomonidan tarixiy voqealarni aks ettirgan nashrlar kelajak avlodga shu soha haqida ma'lumotlarni haqqoniy tanishish imkoniyatini bermoqda. Mustabid sovet tuzumi davrida tarixiy voqealar bir tomonlama, sinfiylik, partiyaviylik nuqtai nazaridan yoritib kelindi. Mustaqillik davrida o'sha davr tarixini tahliliy o'rganish va ilmiylik, xolislik, tarixiylik nuqtai nazaridan yoritgan manbalarga ehtiyoj ortdi. Prezident Sh. Mirziyoyev: "Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga etkaza bilishimiz kerak"[1]. – deya ta'kidlaganlari biz tadqiqotchilarga ulkan mas'uliyatni yuklaydi.

Ma'lumki, O'zbekiston tarixida qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning yirik va o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda jahonda oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik toza mahsulotlarning ishlab chiqarish borasidagi dolzarb vazifalar mavjudki, biz iqtisodiyotimizni, jumladan, qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiya hamda diversifikatsiya qilish, sifatli oziq-ovqat ekinlari etishtirishga alohida e'tibor bermoqdamiz[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda Qashqadaryo vohasining sug'orilishi tarixini tarixshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish uchun bir nechta ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tarixiy-tahliliy metod sug'orish tizimlarining shakllanish jarayonlarini bosqichma-bosqich o'rganishga xizmat qildi. Tarixshunoslik tahlili mavjud monografiyalar, maqolalar va arxiv hujjatlarini solishtirish orqali mavzuga oid ilmiy qarashlar evolyutsiyasini aniqladi. Qiyosiy tarixiy metod vohaning irrigatsiya jarayonlarini boshqa mintaqalar tajribasi bilan taqqoslash imkonini berdi. Manbashunoslik yondashuvi mavjud materiallarining ishonchliligini aniqlashga qaratildi, ijtimoiy-tarixiy tahlil esa irrigatsiya siyosatining demografik va iqtisodiy oqibatlarini o'rganishga yordam berdi. Ushbu metodlar integratsiyasi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston tarixining tarkibiy, ajralmas qismi hisoblangan Qashqadaryo vohasi hudud jihatdan katta maydonni egallagan bo'lib, O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlarda voha tarixi chambarchas bog'liqdir. Qashqadaryo vohasi hududi shimoldan janubga, sharqdan g'arbga o'tish yo'lagida joylashganligi nuqtai nazaridan qaralganda ham muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga voha iqlimining o'ziga xosligi, o'lkada dehqonchilik qilish uchun qulay geografik muhitga ega hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizning har bir fuqarosini munosib ish o'g'ini va yashash darajasi bilan ta'minlashga qaratilgan. Bunda O'zbekistonning qishloq xo'jalik imkoniyatlarini to'liq ishga tushirish katta ahamiyatga ega. Zero, 1980-yillar oxiridan boshlab o'tgan davrda katta mehnat evaziga qurilgan irrigatsiya inshootlari borgan sari yaroqsiz holga kelib qoldi. Natijada 600 ming ga erning meliorativ holati yomonlashdi, 200 ming ga er esa mutloqo yaroqsiz bo'lib qoldi[3] mustabid sovet tuzumi davrida O'zbekistonda xususan Qashqadaryo viloyatida olib borilgan agrar sohadagi siyosat, yangi erlarni o'zlashtirish, melioratsiya va mexanizatsiya ishlarining paxta yakkahokimligiga bo'ysundirilishi natijasida gidroinshootlarning barpo etilishi, uning ekologik muhitga ta'siri, suvdan oqilona foydalanmaslik oqibatida suvga bo'lgan ehtiyojning ortishini asoslab berish, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan qarorlarning mustamlakachilik mazmun-mohiyatini ochib berish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Respublikada, xususan, Qashqadaryoda yuzaga kelgan suv taqchilligi holati, meliorativ tanglik, tumanlar miqyosida ham bir-biridan o'zaro farqlanib, vaziyat turlicha bo'lgan. Bu davrdagi tarixiy jarayonlarning xususiyatlarini tumanlar kesimida o'rganilishi muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi deya ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60 son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan omillar Sovet davlatining O'zbekistondagi agrar siyosati va uning irrigatsiya ishlariga ta'siri (Qashqadaryo misolida) tarixi xolisona o'rganishni taqozo etadi.

Tadqiq etilayotgan mavzuga oid ishlar tahlili va yangicha konseptual-uslubiy yondashuvlardan kelib chiqqan holda o'rganilayotgan muammo doirasidagi manba va adabiyotlarni uch guruhga bo'lish maqsadga muvofiq deb topildi: Sovet hokimiyati yillarida chop etilgan nashrlar, mustaqillik davrida yaratilgan tadqiqotlar hamda xorijiy mualliflar tomonidan nashr qilingan adabiyotlar.

Birinchi guruhga doir tadqiqotlarning o'ziga xos jihati sifatida shuni ta'kidlash lozimki, Qashqadaryo vohasi irrigatsiyasiga oid nashrlarda sovet mustamlakachiligi davri mafkurasining ustunligini kuzatamiz. Hukumatning ijtimoiy-siyosiy holatidan kelib chiqqan holda bu davr tarixshunosligida kommunistik g'oyaning xohish – istagiga bo'ysundirilgan manbalar faqat markaz irodasiga xizmat qilganlik holatlari ko'p uchraydi. Shuning uchun mazkur davrda suv xo'jaligi tarixi, sug'orish masalalari, uning markaz tomonidan rivojlantirilishi bilan bog'liq jihatlar faqatgina biryozlama tarzda talqin etilgan. Ammo shuni ham e'tirof etib o'tish kerakki, bu davrda Respublikaning boshqa hududlaridan farqli o'laroq, Qashqadaryo vohasida sug'orish tarixida misli ko'rilmagan yirik ishlar aynan boshqa hududlarda amalga oshirilgan irrigatsiya ishlarida o'sha davrda sovet davlatining sug'orish inshootlarini barpo etishi va uning oqibatida paxtachilikning jadallashishi bo'rttirib ko'rsatish asosiy ko'rinishni bergan bo'lsa-da, vohada esa asl holatda sug'orishning rivojlanishi va suv inshootlari qurilishidagi o'ziga xos vatanparvarlikni ko'rishimiz mumkin.

V.Y.Nepomnin, S.P.Tolstov, S.I.Baturin, Y.G'ulomov, R.S.Egamberdiyev, M.Qoriyev, A.G'.Abdunabiyev, A.Muhammadjonov, T.Abdurahmonova, B.D.Korjavin, X.M.Jalilov, E.Xoliqov, S.T.Tileuqulov, N.Ergashev, Y.Qosimov[5] kabi mualliflarning ishlarida O'zbekiston irrigatsiya tizimining sovet davri tahlil etilgan. Masalan, V.K. Nepomnin O'zbekiston irrigatsiya tizimining turli davrlardagi holatini o'rgangan bo'lsa, S.P.Tolstov va Y.G'ulomov Xorazm, A.Muhammadjonov quyi Zarafshon vohalarining sug'orilish tarixi, S.I.Baturin O'zbekistonda sovet irrigatsiya umumxalq ijodi masalalari, R.S.Egamberdiyev esa Mirzacho'lni o'zlashtirish bilan bog'liq tarixiy jarayonlarni tadqiq etgan. Ayniqsa, bu davrda "O'zbekiston irrigatsiyasi" nomli 4 jildlik kitoblarning nashr etilishi diqqatga sazovordir. Shuningdek, Sovet davrida sug'orish tizimi muammolari tarixiga bag'ishlangan K.M.Narinskiy, Q.Q.Abdullayev, R.S.Egamberdiyev, E.Xoliqov, A.Fayziyevlar[6]ning tadqiqot ishlari mavjud.

Bu kitoblarda respublika irrigatsiyasining sovet davrida erishilgan yutuqlari hamda kelajakdagi istiqbollari xususida mazmunli ma'lumotlar berilgan. Umuman, yuqorida nomlari qayd etilgan mualliflar tarixiy va iqtisodiy jihatdan Markaziy Osiyodagi agrar o'zgarishlarni, qishloq xo'jaligi qayta qurish tajribasini, xususan, paxtachilik va sug'orish tizimini birlamchi manbalar yordamida yoritib berishgan. Jumladan, Q.Abdullayevning dissertatsiyasi 1946-1964 yillardagi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining qishloq xo'jaligi, irrigatsiya va melioratsiya tizimi yirik suv xo'jaligi qurilishlari tarixiga bag'ishlanganligi bilan ahamiyatli bo'lsa-da, ammo sovet davri kommunistik mafkurasi asosida yoritilgan.

Bu yillarda Qashqadaryo vohasi sug'orilish tizimi muammolarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot ishlari ko'lamli ham salmoqli bo'lgan.

Tadqiq etilayotgan davrda G.N.Vinogradov birinchilardan bo'lib Qashqadaryo vohasida irrigatsiya tizimi va gidrotexnik inshootlarni o'rganishga harakat qilgan. Q. Abdullayevning tadqiqotida Sovet hukumatining Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida urushdan keyingi yillardagi qishloq xo'jaligi, irrigatsiya va melioratsiyasi bo'yicha olib borgan siyosati natijasida aholining Eskianhor kanali, Chimqo'rg'on suv ombori qurilishlaridagi fidokorona mehnatlari

94 tarixi tahlilga tortilgan. Shunga qaramay bu tadqiqot voha sug'orilish tarixiga oid ma'lumotlar–arxiv manbalari asosida yoritilganligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Q. O'ljaboyev tadqiqotida Qashqadaryo vohasida er-suv islohotlarining amalga oshirilishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'siri masalasini birlamchi arxiv va davriy nashr materiallari asosida tadqiq qilgan. Ushbu tadqiqot materiallari asosida monografiya ham nashr ettirgan.

Xullas, Sovet mafkurasi davrida yaratilgan bunday tadqiqotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu davrda yangi erlarni o'zlashtirish va sug'orish tizimi tarixini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab asarlar nashr etildi. Lekin mazkur tadqiqotlarda hukmron davrning mafkurasi va o'sha davr siyosati, ruhi va g'oyalari etakchilik qilgan.

Sovet hokimiyati tomonidan yuritilgan agrar siyosatning mohiyati mustamlakachilik tamoyillariga asoslangan bo'lib, butun davr davomida respublika qishloq xo'jaligi tizimi paxta monokulturasiga qat'iy bog'lab qo'yilgan. Paxtachilik, sug'orish va melioratsiya tizimlarini rivojlantirishda mahalliy iqtisodiy ehtiyojlardan ko'ra ittifoq markazining strategik manfaatlari ustuvor deb e'tirof etilgan.

Yangi erlarni o'zlashtirish hamda irrigatsion infratuzilmani kengaytirish uchun ajratilgan kapital mablag'lar ko'lami sezilarli bo'lishiga qaramay, ularning kattagina qismi samaradorlik nuqtai nazaridan o'zini oqlamagan. Paxta maydonlarini sug'orishda suv resurslaridan haddan tashqari foydalanish natijasida mintaqaviy suv tanqisligi muammosi keskinlashgan, suv balansining buzilishi esa ekologik izdan chiqish jarayonini tezlashtirgan.

Paxta yakkahokimligiga tayanilgan ushbu siyosatning ekologik oqibatlari ham chuqur va ko'p qirrali bo'lgan. Atrof-muhitning zararlanishi, tuproqning sho'rlanishi, havoning kimyoviy ifloslanishi hamda tabiiy landshaftlarning buzilishi aholi sog'lig'iga jiddiy zarar etkazgan. Natijada turli yuqumli kasalliklar va sog'liq bilan bog'liq omillarining ortishi kuzatilgan.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar tarix fanining yangi nazariy-uslubiy, zamonaviy tamoyillariga tayanib yaratilganligi bilan ahamiyatli. R.X. Aminova, A.Qodirov, X. Jabborov, A. Muxamedov, H. Xolmo'minov, O.K. Komilov S. Tursunovlar[7]ning tadqiqot ishlari shular jumlasidandir.

Xususan, R.X.Aminova O'zbekiston sovxozlarining 1917-1960 yillardagi tarixini o'rganish asnosida ularning sug'orish tizimi muammolarini ham tahlil etgan bo'lsa, A.Qodirov O'zbekiston irrigatsiyasi tarixini yoritgan. Mustaqillik davrida I.A.Begmatov va A.K. Muhamedovlarning O'zbekiston irrigatsiya tarixini turli davrlardagi holatini o'rganish qaratilgan. Ayniqsa, O.K.Komilovning O'zbekistonda irrigatsiya tizimi rivojlanishi va uning oqibatlari tarixiga (1951-1990 yillar) bag'ishlangan dissertatsiyasi aniq dalillar asosida yoritilganligi bilan boshqa tadqiqotlardan alohida ajralib turadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston xalqining erlarni o'zlashtirish va sug'orish tizimi tarixiga oid lingvistik, etnografik ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan risolalar, kitoblar, maqolalar yozildi va nashr etildi. Jumladan, bevosita Qashqadaryo vohasida yangi erlarni o'zlashtirish, suv va sug'orish bilan bog'liq bir qator tadqiqotlar ham yaratildi. Irrigatorlardan A. Pardayev, O., Imomnazarov N. Tilovov, M.Pirmatov, X. Toshev, I. Yusupov, A. Shabetov, B. Rahimovlar[8], arxeologlardan A. Raimqulov, S. Suyunovlar[9], tarixchilardan B.N. Uzakov, M.Xudoyqulov, A. Raximovlar[10]ning ilmiy ishlari, ayniqsa, bu sohada bajarilgan ishlar ko'lamini kengaytirishga salmoqli hissa qo'shdi. Ushbu tadqiqotlar O'zbekistonning janubiy hududlari, xususan, Qashqadaryo vohasi tarixining agrar-siyosiy, irrigatsion va ijtimoiy jarayonlarini o'rganishda bir qator muhim tarixshunoslik manbalari qatoridan hisoblanadi. Bu asarlar XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida vohada yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni chuqur tahlil qilishi hamda xolisligi bilan ajralib turadi.

O. Imomnazarov va N. Tilovovning "Obi hayot zahmatkashlari" (2000) kitobi sug'orish tizimlarida faoliyat yuritgan mutaxassislar, gidrotexniklar va dehqonlarning tarixiy tajribasini aks ettiradi. Asar irrigatsiya sohasidagi mehnat jarayonlarini, jamiyat taraqqiyotiga qo'shilgan hissa va real amaliy tajribalarni tarixiy kontekstda ko'rsatishi bilan ajralib turadi. X. Toshevning "Irrigatsiya – umrim mazmuni" (2009) va "Daryolar tutashgan diyor" (2020) nomli asarlari

Qashqadaryo irrigatsiya tarixining muhim bosqichlarini shaxsiy kuzatishlar, tarixiy hujjatlar va ilmiy xulosalar asosida yoritadi. Muallif suv xo'jaligi tizimining rivoji, gidrotexnik inshootlar, ularning qurilishi va ekspluatatsiyasi tarixiga oid qimmatli ma'lumotlarni beradi.

S. Raimqulovning **“Qashqadaryo vohasining o'rta asr shaharlari”** (2018) asari esa vohaning tarixiy shaharsozlik madaniyati, arxeologik topilmalar, o'rta asr urbanizatsiya jarayonlari bo'yicha fundamental tadqiqot sanaladi. Ushbu asar mintaqaning uzoq tarixiy davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini o'rganishda dolzarb manba hisoblanadi. O'zbekiston janubiy hududlarining agrar taraqqiyoti, irrigatsiya tarixiy jarayonlari va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha yaratilgan ilmiy adabiyotlar qatorida A. Raximovning **“Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi tarixi (1950–1980 yillar)”** nomli tadqiqoti alohida o'rin tutadi. Ushbu asar Qarshi cho'li o'zlashtirilishining eng faol bosqichlari bo'lgan 1950–1980-yillardagi siyosiy, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni chuqur ilmiy tahlil qiladi. Raximov mintaqada olib borilgan keng ko'lamli meliorativ ishlar, suv inshootlari qurilishi, sovet agrar siyosatining amaliy ko'rinishlari hamda paxta monokulturasini kengaytirishga qaratilgan strategik maqsadlarning tarixiy asoslarini puxta yoritadi. Asarda Qarshi cho'lini o'zlashtirish jarayonida irrigatsion tizimlarning qurilishi, suv taqsimoti, gidrotexnik infratuzilmaning shakllanishi va bu jarayonning iqtisodiy samaradorligi keng ko'lamda tahlil qilingan. Muallif, shuningdek, o'zlashtirish siyosatining ekologik oqibatlari, aholi salomatligi va mintaqaning ijtimoiy strukturasidagi o'zgarishlarni ham tarixiy dalillar asosida ko'rsatadi. Raximov tadqiqoti boshqa manbalardagi ma'lumotlarni ilmiy ravishda to'ldiradi va Qarshi cho'li tarixini o'rganishda muhim tarixshunoslik bo'g'ini sifatida xizmat qiladi. Xudoyqulov, Pardaev, Toshev, Imomnazarov–Tilovov, Pirmatov asarlarida yoritilgan irrigatsiya, tabiatshunoslik va mehnat jarayonlari haqidagi ma'lumotlar bilan uyg'unlikda, Raximovning qarashlari yangi erlarni o'zlashtirish siyosatining sovet davridagi real mexanizmlari hamda ularning mintaqaviy ta'sirini tizimli tahlil qilish imkonini yaratadi.

Umuman olganda, ushbu adabiyotlar Qashqadaryo vohasining irrigatsiya tarixi, agrar siyosati, ekologik jarayonlari, shaharsozlik madaniyati va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga oid tarixshunoslikni shakllantiruvchi muhim asosiy manbalar majmuasini tashkil etadi. Har bir asar mintaqa tarixining alohida qirralarini tadqiq etib, janubiy O'zbekistonning tarixiy taraqqiyotini keng ilmiy jihatda yoritishga xizmat qiladi.

Uchinchi guruh. Xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan tadqiqotlarga Mario Rikardo, Benjamin Pol, Kandioti, M. Spur, V.A.Duxovniy, YU Shutter[11] va boshqa mualliflarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. Xususan, Mario Rikardonning “Markaziy Osiyoda Sovet hokimiyatining inqirozi: “paxta ishi” (1975-1991) “ nomli dissertatsiyasida 1975-1991-yillardagi Sovet hokimiyatining mustahkamlanishi, paxta etishtirishga ixtisoslashuvi, “paxta ishi” va bu davrdagi qishloq xo'jaligining ahvoli va undagi ijobiy va salbiy holatlar O'zbekiston misolida ochib berilgan. Yup de Shutter va A.V.Duxovniylarning “Markaziy Osiyoda suv: o'tmish, hozir, kelajak” nomli fundamental kitobida Markaziy Osiyoda suv, uning ahamiyati, undan oqilona foydalanish kabi muammolarning echimiga qaratilgan bir qator taklif va tavsiyalar berilgan.

Xulosa va takliflar. Qashqadaryo vohasining sug'orilish tarixi bo'yicha yaratilgan tarixshunoslik manbalari mintaqaning agrar rivoji, irrigatsion tizimlari va ekologik o'zgarishlarini turli nuqtai nazar hamda ilmiy yondashuvlar asosida o'rgangan keng qamrovli tadqiqotlar majmuasini tashkil etadi. Pardaev, Xudoyqulov, Pirmatov, Uzakov, Toshev, Imomnazarov va boshqa tadqiqotchilar asarlarida vohadagi sug'orish tizimlarining shakllanishi, daryo resurslari o'zlashtirilishi, yangi erlarning meliorativ o'zgarishi, gidrotexnik inshootlar qurilishi va sovet agrar siyosatining mintaqaga ta'siri kabi muhim masalalar izchil yoritilgan.

Tarixshunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo vohasida sug'orish tizimlarining shakllanishi ikki asosiy yo'nalishda o'rganilgan: tabiiy-geografik va qishloq xo'jaligi taraqqiyoti doirasida, sovet davri irrigatsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy oqibatlari kontekstida.

Ushbu tadqiqotlarda vohaning qadimiy sug'orish an'analari bilan bir qatorda, XX asrning ikkinchi yarmida amalga oshirilgan yirik meliorativ loyihalarning mohiyati, Qarshi cho'lini o'zlashtirish jarayonlari, suv tanqisligi, ekologik muammolar va paxta monokulturasining mintaqa hayotiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilingan. Ayniqsa, 1950–1980-yillardagi irrigatsion siyosatning

96 oqibatlari, gidrotexnika tajribasi va sug'orish tizimlarining transformatsiyasi haqida muhim ilmiy xulosalar berilgan.

Tarixshunoslikning o'ziga xos jihati – tadqiqotlarda mahalliy amaliy tajriba bilan arxiv materiallari, ilmiy kuzatishlar va shaxsiy esdaliklar uyg'unlashtirilganligidir. Bu esa vohada sug'orish tizimlari rivojlanishining ko'p qirrali manzarasini tiklash imkonini beradi. Manbalar tahlili irrigatsiya jarayonlarining faqat iqtisodiy emas, balki ekologik, demografik va ijtimoiy jihatlar bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda Qashqadaryo vohasining sug'orilishi bo'yicha tarixshunoslik tadqiqotlari mintqa agrar tarixining asosiy bosqichlarini chuqur yoritib, sovet siyosati, yangi erlarning o'zlashtirilishi, suv resurslaridan foydalanish strategiyasi va ekologik oqibatlarning ilmiy talqinini beradi. Mazkur manbalar mintaqaning irrigatsion taraqqiyot jarayonlarini kompleks o'rganish, qiyosiy tarixiy tahlil olib borish va kelgusida suv xo'jaligi siyosatini baholashda muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev. Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. – Toshkent. “O‘zbekiston” - 2020. - B. 387-388 .
2. Орол дарди ва сабоқлари. karakalpakistan.uz/uz/document/generaete-pdf/news/762 (мурожаат қилинди 2020 йил 20 май)
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. “Ўзбекистон Республикаси сув хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” 2020 йил 10 июлдаги ПФ-6024-сон //
4. Непомнин В.Я. К истории ирригации в Узбекистане. –Ташкент: “Узпартиздат”, 1940. -60 с.; Толстов С.П. Древний Хоразм. –М.: МГУ, 1948.;–186 б; Батулин С.И. Ўзбекистон совет ирригацияси умумхалқ ижоди. –Тошкент: “Ўздавнашр”, 1955. Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. –Тошкент.: “Фан”, 1959, -324 б; Эгамбердиев Р.С. Голодная степь, ее прошлое и настоящее. –Ташкент: “Наука”, 1965. –69 с.; Шу муаллиф. Из истории трудящихся Узбекистана за освоение земель Голодной степи: Автореф. ... дисс. канд. истор. наук. –Ташкент, 1966. –22 с., Қориев М. Ўзбекистон сув омборлари. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 1969. -88 б; Муҳаммаджонов А. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи. –Тошкент: “Фан”, 1972. –361 б;
5. Виноградов Г.Н. Ирригация в долине Кашка-Дарьи. –Ташкент, 1935. –102 с Қориев М., Ҳисомов А. Қарши чўли ва унинг келажиги. –Тошкент. 1963. -26 б. Абдуллаев К.К. Развитие ирригационного строительства и орошаемого земледелия в Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях Узбекистана в послевоенных период (1946-1965 годы): Автореф. ... дисс. канд. истор. наук. –Самарканд, 1966. –23 с., Файзиёв А. Роль кооперации в подготовке условий для коллективизации сельского хозяйства в Узбекистана (на материалах Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей 1925-1930 гг.): Автореф. ... дисс. канд.истор. наук. –Самарканд, 1974. –22 с. Ульжабаев К. У. Развитие орошаемого земледелия и ирригации на юге Узбекистана (1917-1940 г.г.): Автореф. ... дисс. канд. истор. наук. –Ташкент, 1976. –23 с.
6. Аминова Р.Х. История совхозов Узбекистана. 1917- 1960 гг. Опыт, проблемы, уроки. -Ташкент: Фан, 1993.-248 с.; Қодиров А. Ўзбекистон ирригацияси тарихидан лавҳалар (XIX аср ўрталаридан 1920 йилларгача). –Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашр., 1998. –144 б; Жабборов Х. Ўзбек тилининг суғориш лексикаси. –Қарши: Насаф, 2004. –153 б.; Мухамедов А. Сув хўжалиги ва мелиорацияга кириш - Тошкент, 2008; Низомов А. Ўзбекистоннинг қадимги гидротехник иншоотлари географияси –Тошкент, 2008;
7. Комилов О.К. Ўзбекистонда ирригация тизими ривожланиши ва унинг оқибатлари (1951-1990 йй.): Тарих фан. докт... дисс. –Тошкент, 2018.-265 б. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи ва иккинчи китоб. 1917-1991 йиллар –Тошкент, О‘zbekiston, 2019;

8. Турсунов С. ва бошқ. Табиат, инсон, тафаккур. – Тошкент: Янги нашр, 2020; Ҳ.Ҳамидов, Қ.Назаров ва бошқ. Табиатни асраш ва инсон масъулияти (илмий монография)// Сувга муносабат ва экологик тафаккурни такомиллаштириш механизми – Тошкент: ТИҚХММИ, 2020;

9. Пардаев А. Сотворение земли. –Қарши, «Насаф», Пардаев А. Возрожденный край. –Ташкент: «Ўзбекистан», 1984. -112 с; Гойипова Т.Ф. Қарши чўлида меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш. –Тошкент: «Ўзбекистон», 1984. –23 б. 1991. –78 с; Узатов Б.Н. Социальные аспекты развития орошаемого земледелия в Узбекистане 60-е нач. 70-х гг. (На материалах южных областей): Автореф. ... дисс. канд. истор. наук. –Ташкент, 1993. –26 с; Худойкулов М. Қарши чўли. –Тошкент: Шарқ, 1998. –320 б; Пирматов М. Жайхун мавжлари. –Қарши, «Насаф». 1993. –50 б; Имомназаров О., Тилолов Н. Оби ҳаёт заҳматкашлари. –Қарши: «Насаф», 2000. –66 б; Тошев Х. Ирригация – умрим мазмуни. – Тошкент, 2009. -246 б; Шу муаллиф. Дарёлар туташган диёр. –Қарши: «Насаф», 2020. -292 б; Раимкулов С. Қашқадарё воҳасининг ўрта аср шаҳарлари. –Қарши, «Насаф», 2018. –204 б;

10. Riccardo Mario Cucciolla. The Crisis of Soviet Power in Central Asia: “The cotton affair” (1975-1991). –Lucca (Italy), 2017. PhD Program in Political History XXVIII Cycle, Benjamin Phol. Rethinking water in Central Asia. –Berlin, 2017. P.127.Kandiyoti D. Agrarian Reform, Gender and Land Rights in Uzbekistan. Programme on Social Policy and Development, Paper No.1 1, –Geneva: UNRISD, 2002, –79 p.; Spoor M. Agricultural Restructuring and Trends in Rural Inequalities in Central Asia:A Socio-Statistical Survey. Programme on Civil Society and Social Movements –Geneva: UNRISD, 2004.-P.4; Micklin P.P. The Aral Sea Disaster // Annual Review of Earth and Planetary Sciences, Volume 35. –Chicago, 2007; Духовный В.А., Шуттер Ю. Вода в Центральной Азии: прошлое, настоящее, будущее. –Алматы, 2018. –466 с;

11. <https://www.gazeta.uz/uz/2018/12/21/islom-sivilizatsiya>